

Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

turgunoy91@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf O'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchilarni kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning muhim yo'llari bayon etilgan. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar zahirida ham kommunikativ kompetensiya o'z aksini topmoqda. Shu bilan birga tajriba-sinov ishlari orqali o'quvchilarni ta'lim va tarbiyasida kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati misollar orqali asoslab berilgan. Barkamol shaxsni voyaga yetkazishda kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lish juda muhim o'rin tutadi. Bu kompetensiyaga nafaqat o'quvchilar balki o'qituvchilar ham ega bo'lishlari haqida fikrlar keltirilgan. Chunki ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi o'quvchilar uchun asosiy namuna hisoblanadi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, barkamol shaxs, lug'at boyligi, jamoa bilan ishlash, boshlang'ich sinf o'quvchilari, ta'lim-tarbiya jarayoni, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, yozma savodxonlik, og'zaki nutq, adabiy til me'yorlari, dunyoqarashini kengaytish, ta'lim tizimi, "4K" modeli.

ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ

Аннотация. В этой статье описаны важные способы развития коммуникативной компетентности учащихся на уроках грамотности чтения в начальной школе. Коммуникативная компетентность отражается и на фоне проводимых реформ в системе образования. В то же время роль и значение коммуникативной компетентности в обучении и воспитании учащихся посредством экспериментальной и пробной работы обоснованы на примерах. Коммуникативная компетентность занимает очень важное место в воспитании гармоничной личности. Высказываются мнения, что этой компетенцией обладают не только ученики, но и учителя. Потому что в учебно-воспитательном процессе Учитель является основным образцом для подражания для учащихся.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, компетентная личность, словарный запас, командная работа, учащиеся младших классов, учебно-воспитательный процесс, речевая компетентность, языковая компетентность, письменная грамотность, устная речь, нормы литературного языка, расширение кругозора, система образования, модель "4K".

FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN ELEMENTARY GRADE READING LITERACY CLASSES

Annotation. This article describes important ways to develop communicative competence of students through elementary grade reading literacy classes. Communicative competence is also reflected in the Zamiri of reforms in the educational system. At the same time, through experimental work, the role and importance of communicative competence in the education and education of students is justified by examples. Having communicative competence plays a very important role in bringing a competent individual to adulthood. It has been suggested that this

competence is not only for students, but also for teachers. Because in the educational process, the teacher is the main role model for students.

Keywords: *communicative competence, competent personality, vocabulary wealth, teamwork, elementary students, educational process, speech competence, linguistic competence, written literacy, oral speech, literary language norms, worldview extension, educational system, model "4K".*

Kirish. Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar zamirida yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash eng asosiy masalaga aylangan. Jumladan, 2017-yil 6-aprelda 187-sonli qaror bilan yangi DTS qabul qilindi, 2020-yil 23-sentabrda 637-sonli qaror asossida "Ta'lim to'g'risidagi qonun" qabul qilindi. Shu bilan birga 2021-o'quv yilida ta'lim jarayoniga tadbiq etilgan "Milliy o'quv dasturi" va bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilardan tahliliy, tanqidiy, mustaqil fikrga ega bo'lishi, o'z fikrini boshqalarga erkin bayon qila olishi, tengdoshlari bilan sog'lom hamkorlik qila olishi va to'g'ri muloqotga kirisha olishi, ijodkorlik sifatlariga ega bo'lishi talab etiladi. Ushbu jarayonda "4K" modelidan foydalanish samarali hisoblanadi. Bularning barchasini olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning biri deb ayta olamiz.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida olib borilayotgan islohotlar natijasida milliy davlatchiligimiz poydevori mustahkamlandi, davlatimiz suvereniteti va chegaralarimiz daxlsizligi ta'minlandi, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini kuchaytirish, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Ana shunday ishlardan biri O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" loyihasini ishlab chiqilishi edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevral kuni farmoni bilan "2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" ishlab chiqilgan edi. Bu bosqich yakuniga yetgandan so'ng esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kuni PF-60-sonli farmoni tasdiqlandi. Bu farmon esa "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"dir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi 79-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 5-dekabrda 372-sonli buyrug'iga ko'ra ta'lim jarayonida o'quvchilarda quyidagi to'rtta hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish kerakligi belgilab qo'yildi. Ushbu jarayonda "4K" modelidan foydalanish samarali hisoblanadi deya olamiz. "4K" modeli 4 ta kompetensiyani qamrab oladi ular: kritik fikrlash, kollaboratsiya, kommunikativlik va kreativlikdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilardan tahliliy, tanqidiy, mustaqil fikrga ega bo'lishi va shu bilan birga o'z fikrini boshqalarga erkin bayon qila olishi, tengdoshlari bilan sog'lom hamkorlik qila olishi, muloqot jarayonida o'z ona tilidan unumli foydalana olishi, ijodkorlik sifatlariga ega bo'lishi talab etilmoqdi.

Joriy qilinayotgan qaror va farmonlar tag zamirida jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish nazarda tutilgan. Taraqqiyot strategiyasi ham besh yilga mo'ljallangan bo'lib amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan reja ishlab chiqilgan. Rejaga asosan esa jamiyatning barcha sohaları qamrab olingandir.

Ta'limda olib borilayotgan islohotlardan yana biri o'quvchilarimizni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilganligidir.

Albatta, ta'lim – tarbiya – hayotimizning ajralmas qismi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi o'quvchilarni ma'naviy jihatdan yetuk inson qilib shakllantirishning birinchi omilidir.

Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutloqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab ta'lim – tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab – quvvatlashishini talab qiladigan umummilliy masaladir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ushbu maqolada belgilangan vazifalarni hal etish uchun davlatimiz rahbari va tegishli vazirliklar tomonidan ishlab chiqilayotgan bir qator qaror va farmonlarga, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari, metodist olimlarimizning fikr va mulohazalariga tayandik.

Mamlakatimizda ijtimoiy va kommunikativ faolligi muammolarini O.Musurmonova, N.Egamberdiyeva, o'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyalari, o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik imkoniyatlari R.Safarova, B.Xodjayev, K.Inoqov, M.Abdullayevlar tomonidan yoritib berilgan. Rus psixolog olimlar L.S.Vigotskiy, V.P.Zinchenko, I.R.Rumyanseva, V.F.Petrenko kommunikativ kompetentlikning axloqiy sifatlarini tadqiq etdilar. M.M.Baxtin, Yaspers, Y.Xabermas kabi tadqiqotchilar falsafa, til, jamiyat va inson individualligi bilan bog'liq masalalarni faol ravishda yoritib beradi.

Natijalar. Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarida o'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali, ravon o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini (o'z ona tiliga hurmat, so'zlardan to'g'ri va unumli foydalana olish) hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiriladi. O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda kommunikativ kompetensiya juda katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarining asosiy maqsadi:

milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish, o'quvchilar lug'atini boyitish va rivojlantirish;

o'quvchilarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda muloqot madaniyatini rivojlantirish, jamoada ishlay olish va hamkorlik qila olishga o'rgatish, shuningdek, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda mustaqil fikrlash va xulosalar chiqara olishga o'rgatish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

O'qish savodxonligi (1-4-sinf) fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

o'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish;

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish): o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi; nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi; mashq matnidagi so'zlarni qo'shib, gap ohangiga rioya qilib ravon va ifodali o'qiy oladi; shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar nechta?, qancha? so'roqlariga, shaxs va narsaning tartibini bildirgan so'zlar nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi; 3-4 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata oladi; rasmlar asosida qisqa matn tuza oladi, xatboshiga, imlo va husnixat qoidalariga amal qila oladi.

Lingvistik kompetensiya: o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay oladi; talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi; bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi; mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi; tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi; 30-40 so'zli diktant yoza oladi. A1+ Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish): mashq va topshiriqlardagi axborotni tushuna oladi; mashq va topshiriqlarda berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib ravon o'qiydi; 4-5 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata oladi. Lingvistik kompetensiya: nutqda so'zlarning grammatik shakllaridan to'g'ri foydalana oladi; 35-45 so'zli diktant yoza oladi.

Yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchidagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. Shuningdek, miqdoriy ko'rsatkich – o'qish tezligi emas balki, ongli va ravon o'qiy olishi bilan belgilanadi.

Bolaning matn mazmunini to'liq o'qib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgalarni nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

1-jadval. Tajribagacha bo'lgan natija.

MEZONLAR								
Sinflar	Jamoa bilan ishlash ko'nikmasi.		Mavzuni qayta hikoyalashda adabiy til me'yorlariga amal qilishi.		O'z fikrini erkin bayon qila olishi.		Mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olishi va javob berishi.	
	nafar	%	Nafar	%	nafar	%	Nafar	%
2-A (34 nafar) (tajriba)	21	61,7	17	50	15	44	9	26
2-B (33 nafar) (nazorat)	19	57,5	16	48	12	36	7	21

Darslar jarayonida to'rtta me'zonga ham alohida-alohida e'tibor qaratdik. Shundan so'ng qayta natijalarni aniqladik. Hikoyalar orqali o'quvchilarda "Zehn matni" usuli orqali jamoa bilan ishlash ko'nikmasini qayta nazorat qildik. Bu usul darslikda berilgan matn bilan o'quvchilar tanishib bo'lgach zehni sinash uchun, mustahkamlash uchun qo'llaniladi. Buning uchun o'quvchilarni guruhlariga bo'lib oldim va matn yozilgan qog'oz taqatiladi. Matn ichidagi ayrim so'zlarni o'zgartirib qo'yiladi. O'quvchilar shu so'zlarni topib jadvalga to'g'ri va noto'g'risini joylaydilar. Natijalar juda yuqori har bir guruh o'quvchilari faol va bir-birlarini xurmat qilib matn ustida ishlay olishadi. "Davra suhbat" metodi orqali o'quvchilarning mavzuni qayta hikoyalashda adabiy til me'yorlariga amal qilishlarini nazorat qilinadi. Bu metodda o'quvchilarga alohida-alohida savollar tarqatilib, javob yozishlari talab etiladi. Javoblarni og'zaki tarzda ham ifodalaydilar. Shu mavzu yuzasidan o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon qila olishida "Aqliy hujum" metodidan foydalanadi. Nazorat ishini o'tkazish jarayonida o'quvchilarga individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda savollar tuziladi va javoblar olinadi. Mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olishi va javob berishini aniqlash uchun ham foydalaniladi, har bir o'quvchi o'zi mustaqil holda savol tuzishi talab qilinadi. Savollar takrorlanmasligi uchun uchta qatordagi o'quvchilarga mavzu matnini uch qismga bo'lib, har bir qator o'zi uchun ajratilgan qismdan savol tuzib javob berishi kerakligini tushuntirdik. Barcha nazorat ishlarini olib bo'lib ularni quyidagi jadvalga joyladik.

2- jadval. Tajribadan keyingi natija.

MEZONLAR								
Sinflar	Jamoa bilan ishlash ko'nikmasi.		Mavzuni qayta hikoyalashda adabiy til me'yorlariga amal qilishi.		O'z fikrini erkin bayon qila olishi.		Mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olishi va javob berishi.	
	nafar	%	Nafar	%	Nafar	%	Nafar	%
2-A(34 nafar) (tajriba)	31	91	29	85	31	91	28	82
2-B (33 nafar) (nazorat)	27	81	23	69	25	75	21	63

Natijalarni solishtirish orqali sinflar orasidagi farqni qay darajada ekanligi aniqladik. Kuzatuv va rivojlantiruvchi bosqichlardagi natijalarni solishtirma-analiz qilish, ularni jadvallarda aks ettirish, quyida keltirilgan:

3-jadval. Solishtirma tahlil.

	O‘quvchilarning soni – 33 nafar Nazorat sinfi – 2 – <>					O‘quvchilarning soni- 34 nafar Tajriba sinfi -2-- <<A>>				
№	Me’zonlar	Tajribagacha		Tajribadan keyin		Tajribagacha		Tajribadan keyin		
		Natija	%	Natija	%	Natija	%	Natija	%	
1	Jamoa bilan ishlash ko‘nikmasi.	19	57,5	27	81	21	61,7	31	91	
2	Mavzuni qayta hikoyalashda adabiy til me’yorlariga amal qilishi.	16	48	23	69	17	50	29	85	
3	O‘z fikrini erkin bayon qila olishi.	12	36	25	75	15	44	31	91	
4	Mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olishi va javob berishi.	7	21	21	63	9	26	28	82	

Muhokama. Yuqoridagi natijalardan ko'rinib turibdiki, o'tkazilgan tajriba natijasida har ikkala sinfda ham o'sish mavjud. Tajriba sinfi bu jarayonda yuqori natijani aks ettirmoqda. Demak, bevosita qiziqarli tarzda tashkil etilgan darslar, o'quvchilarga to'laqonli yetkazish mahorati, o'quvchilardagi jamoa bilan ishlash ko'nikmasi, adabiy til me'yorlariga amal qilishi, o'z fikrini erkin bayon qila olishi va savollarni mantiqan to'g'ri qo'yib unga javob bera olishi kabi ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur choralar ko'rilib, yuzaga kelgan muammolar vaqtida bartaraf etililgani yaxshi samara berdi. Biz bu orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish darslari orqali ega bo'lishi kerak bo'lgan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga harakat qildik va tajriba-sinov ishi orqali sezilarli natijalarga erisha oldik.

Kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lgan o'quvchilar dars jarayonlarida faol qatnasha boshladilar. O'z fikr va mulohazalarini erkin bildirib, so'zlashganda iloji boricha adabiy til me'yorlariga rioya qila boshladilar. Shu bilan birga jamoa bilan birga ishlash jarayonida bir-birini hurmat qilib, o'rtoqlarini fikriga ham hurmat bilan munosabatda bo'la boshladilar. Dars jarayonida belgilangan mavzu bo'yicha savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olishni va unga javob berishni ham o'rganib bordilar. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad amaldagi dasturga to'laqonli javob berish ko'zda tutilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunga kelib o'qituvchilar oldidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi ta'limning asosiy shartlaridan biri ham o'quvchilarda uchraydigan kommunikativ kompetensiyaga to'sqinlik qiluvchi omillarning mavjudligidadir. Biz o'qituvchilar ularni to'g'ri tushungan holda darslarda o'quvchi mustaqilligini ta'minlash, ularda uchraydigan xatolar va ularni bartaraf etishga doimo diqqatni qaratmog'imiz kerak bo'ladi. Yangi tahrirdagi o'quv dasturlari va darsliklarni takomillashtirish jarayoni ketayotgan bir paytda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisidan zamon bilan hamnafas yashash talab etilmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda ularning o'rni juda yuqori hisoblanadi. Bugungi kunga kelib bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ma'lumki, o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini shakllantirishga monelik qilayotgan sabablarni turli jihatdan (ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, o'qituvchining ish tajribalari, o'qituvchi va o'quvchilarga yaratilgan shart-sharoitlarni, metodik adabiyotlarda berilayotgan turli tavsiyalar va boshqalar) talqin qilish odat tusiga aylangan. Lekin biz o'quvchilarning lug'at boyligining sayozligi, uni rivojlantirishda o'qituvchi mahoratining ahamiyati, o'quvchilarning jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda so'zlashishi, savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olishi va javob berishi kabi sabablarini o'rganish jarayonida bu borada

jiddiy ish olib borishimiz kerakligini his qildik. Ishni tizimli ravishda tashkil etdik. Biz o'quvchilar jamoa bo'lib ishlay olishi uchun avvalo bir-birini fikrini tinglashni so'ngra shu fikrlarni jamlay olishni va so'ngida esa to'g'ri xulosa chiqara olishni o'rgatdik. Muhimi jamoaga boshqaruvchini tanlay olishda ekanligini o'quvchilarga tushuntirdik.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilari adabiy til me'yorlariga amal qilishlari uchun ularning lug'at boyligi katta ahamiyat kasb etadi. Berilgan matnni so'zlash jarayonida o'quvchilar o'zlari uchun qulay va so'zlashish jarayonida ko'p qo'llaydigan so'zlardan foydalandilar. Dastlab, hikoya qilishga 1 minut 18 sekunt vaqt sarflab, so'zlar takroriga yo'l qo'yishgan bo'lsa, rivojlantiruvchi bosqichdan so'ng hikoyani 2 minutdan oshiqroq vaqt mobaynida so'zlay olishdi va albatta adabiy til me'yorlariga amal qilishdi shu bilan birga o'z fikr- mulohazalarini erkin bayon eta olishdi.

Ma'lum bir mavzu yuzasidan berilgan savollarga juda ko'p o'quvchilar javob bera olishadi lekin o'zlari mustaqil mantiqan to'g'ri savol qo'yishda birmuncha qiyinchiliklarga uchraydilar. Bu jarayonda mavzu mazmunini chuqur anglashlari muhim hisoblanadi. Shu bilan birga savollar tuzish jarayonida sinfdoshlaridan yordam olishga va hamkorlik qilishga o'rgandilar deya olamiz. Olib borgan tajriba-sinov ishimiz natijasida o'quvchilar savollarni to'g'ri qo'ya olishni va unga javob bera olishni o'rganib olishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 — 2026-YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA"
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 1999-y. – 410 b. 5-bet.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2000-y. – 352 b. 76-77 betlar.
5. <https://nrm.uz> 1-2-bet.
6. Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. – T., 2015. 10-17-betlar.
7. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va madaniyati san'ati. O'quv qo'llanma. – T., 2010. 28-30-b.
8. Nematjonova Y. O'qituvchi shaxs siymosi. Referat. 2016-yil. 2-6-betlar.
9. Jo'rayev B.O. Bola- olam bezagi. Pedagoglar uchun uslubiy qo'llanma. Namangan 2017y 7-betlar.
10. <https://donschool86.ru>. Pedagogik jarayonda kommunikativ madaniyat. O'qituvchining kommunikativ madaniyatining xususiyatlari, 3-8-betlar.
11. Mirzakarimova N. Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlar dinamikasi psixologik diagnostikasi va korreksiyasi. Magistrlik dissertatsiyasi. 2014. 26-27-betlar.
12. Qosimova K., S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "Nosir" nashriyoti. 2009 y. 71-72-betlar.
13. O'qish fanidan o'quv dasturi (1-4-sinflar) Uqtirish xati, Toshkent-2017. 2-3-betlar.
14. G'afforova T., Nurillayeva Sh., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi. (2-sinf) "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2018.
15. Tillayeva G. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. -T.: Falsafa va huquq instituti, 2009.
16. Turg'unov S.T., Doniyorov B.X., Umarilieva M.A., Shodmonova Sh.S., Turg'unova Sh.M., Tojiboyeva N.M. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. -T.: Sano-standart, 2012.
17. Asadov Y.M. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv. -T.: "Maktab va hayot" jurnali.

N1 (101), 2014.

18. N. Akbarova "Interfaol darslarni tashkil etishda o'qituvchilar kommunikativlik va tashkilotchilik kompetensiyalarini hisobga olish" Ta'lim texnologiyalari jurnali (2015-yil N 5).

19. G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiyasi. –T.: ToshDPU, 2010. 77-bet.

20. Umarov B.M. Psixologiya. "Voris-nashriyoti" Toshkent-2012.

21. T.N.Qori Niyoziy nomidagi ilmiy –tadqiqot institute. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. Toshkent-2015. 7-20-betlar.

22. Hasanboyev J., X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov. Pedagogika."Noshir", Toshkent-2011. 551-571-betlar.

23. Xaydarov F.I., N.I. Xalilov. Umumiy psixologiya. (darslik) Toshkent-2017. 233-247-betlar.

24. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3KCkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3KCkAIAAAAJ:qjMakFHDy7sC

25. <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/11075>

26. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3KCkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3KCkAIAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

27. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3KCkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3KCkAIAAAAJ:9yKSN-GCB0IC

28. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3KCkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3KCkAIAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

29. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3KCkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3KCkAIAAAAJ:u5HHmVD_uO8C